



“GIDROTEXNIKA INSHOOTLARINING XAVFSIZLIGI TO'G'RISIDA”GI QONUN QABUL QILINDI

Manba: O'RQ-865-son Qonun, 30.08.2023-y.

@huquqiyaxborot

QONUNGA KO'RA:



Gidrotexnika inshootlarining

loyiha ko'rsatkichlari parametrlariga, ularga yuklamalar hamda ta'sir ko'rsatish omillariga, shuningdek qurilishda ishlatiladigan materiallarga, foydalanish sharoitlariga qarab gidrotexnika inshootlari I, II, III va IV sinflarga bo'linadi.

Suv xo'jaligi obyektlari xavfsizligini va suvdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi sohasidagi maxsus vakolatli davlat organi etib belgilandi.



Gidrotexnika inshootlarida favqulodda vaziyatlarning yuzaga kelishi xavfini eng ko'p darajada kamaytirish bo'yicha **profilaktika tadbirlarini amalga oshirish** ularning xavfsizligini ta'minlashga nisbatan qo'yilgan asosiy talablardan biri hisoblanadi.



Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun **moliyaviy va moddiy resurslar** zaxiralari ulardan shoshilinch tarzda foydalanish maqsadida foydalanuvchi tashkilotlar tomonidan oldindan yaratiladi.



Gidrotexnika inshootlaridan foydalanish davrida favqulodda vaziyat yuzaga kelishi natijasida boshqa shaxslarning hayotiga, sog'lig'iga va (yoki) mol-mulkiga, shuningdek atrof-muhitga zarar yetkazilganligi uchun **foydalanuvchi tashkilotlarning fuqarolik javobgarligini sug'urta qilish** qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.



Fuqarolar normativ-huquqiy hujjatlarning korrupsiyaga qarshi ekspertizasini o'tkazishda ishtirok etishi mumkin

Manba: O'RQ-860-son, 08.08.2023-y.



Fuqarolar normativ-huquqiy hujjatlarning korrupsiyaga qarshi ekspertizasini o'tkazishda ishtirok etishi mumkin

- ✓ *Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi;*
- ✓ *Adliya vazirligi va uning hududiy bo'linmalari;*
- ✓ *normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining ishlab chiquvchilari bo'lgan davlat organlari va tashkilotlarining yuridik xizmatlari;*
- ✓ *tegishli normativ-huquqiy hujjatlar ijrosini ta'minlash o'z zimmasiga yuklatilgan davlat organlari va tashkilotlari.*



Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi quyidagi hollarda normativ-huquqiy hujjatlarning korrupsiyaga qarshi ekspertizasini o'tkazadi:

- ✓ *o'z tashabbusiga ko'ra – har qanday normativ-huquqiy hujjatlarni, shu jumladan o'rganish va tekshirishlar natijalari bo'yicha normativ-huquqiy hujjatning qo'llanilishi chog'ida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar fakti aniqlangan hollarda;*
- ✓ *Oliy Majlis palatalarining va ular organlarining, Prezident topshiriqlariga ko'ra.*



Adliya vazirligi:

- ✓ *Qonunlar, Prezident farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari loyihalarining;*
- ✓ *vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning davlat ro'yxatidan o'tkaziladigan buyruqlari hamda qarorlarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasini o'tkazadi.*



O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari davlat organlari hamda tashkilotlari tomonidan o'tkaziladigan normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasini o'tkazish jarayonida ishtirok etishi mumkin.



Normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasini o'tkazish bo'yicha ekspertlar reyestri Adliya vazirligi tomonidan yuritiladi.



@huquqiyaxborot